



“KAKOGRAFIYA” METODINI PARONIMLAR VA SINONIMLAR MAVZUSIDA QO‘LLASH

Narbayeva Xosiyat Adilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Atiyazov Saparbay Jumamuratovich

Ilmiy rahbar: Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zbek tili kafedrasida assistenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10730341>

ARTICLE INFO

Received: 22th February 2024

Accepted: 27th February 2024

Online: 29th February 2024

KEYWORDS

“Kakografiya” metodi, interfaol metodlar, paronimlar, sinonimlar, unlilar, undoshlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada “Kakografiya” metodining dars davomida qo‘llash va bu metodning o‘quvchilardagi topqirlik, zukkolikni oshirishi, darslikdagi paronimlar va sinonimlar mavzusida qo‘llash va bu mavzularni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishi haqida atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

Jadallik bilan rivojlanayotgan yurtimizda o‘zbek tilini o‘qitish va uning rivojiga juda katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbek tili lug‘at boyligi juda katta va kundan kunga boyib bormoqda. Bir so‘zni turli xil ko‘rinishda qo‘llashimiz mumkin. Bir so‘z bitta tovush bilan boshqa bir so‘zni anglatadi, yoki bir so‘zni gapdagi o‘rnini almashtirish uning boshqa ma‘no anglatishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi kunda maktab o‘quvchilari bunday muammolarga juda ko‘p duch kelishadi. Muammolarni bartaraf etish esa darsni to‘g‘ri tashkil qilish va to‘g‘ri metodlarni qo‘llashni taqazo qiladi. Shu bilan birga dars davomida interfaol usullar va innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa ta‘lim sifati va o‘quvchilarning qiziqishi ortadi. Dars davomida aqliy hujum, muammoli vaziyat, breynrayting, klaster, so‘z o‘yini, breynstoring, blits-so‘rov, kakografiya, germenektiv suhbat kabi metodlarni qo‘llashimiz mumkin.

Ona tili darsligida berilgan “Paronimlar” va “Sinonimlar” mavzusini o‘qitishda “Kakografiya” metodidan foydalanilsa darsning samaradorligini oshiradi. Metodni qo‘llashda o‘quvchilar soni, ularning o‘zlashtirish darajasi va boshqalar e‘tiborga olinadi. Ta‘lim oluvchilar dars davomida faol ishtirok etadi.

Paronimiya (yun. *para* - “yonida” + *onyma* - “nom”) - ikki yoki undan ortiq leksemalarning talaffuzda o‘zaro o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi. Bunday o‘xshashlik, odatda, har ikki (yoki uch) leksema tarkibidagi tovushlarning fizik - akustik yaqinligidan kelib chiqadi. Masalan, arqon va arkon. Bu ikki so‘z tarkibidagi 5 ta tovushdan 4 tasi ayni bir xil fonemalardir, ammo ulardan birinchisida “q”, ikkinchisida esa “k” fonemalari qatnashgan. Bu ikki fonemaning biri (“q”) chuqur til orqa, ikkinchisi (“k”) esa sayoz til orqa, ikkalasi ham jarangsiz, portlovchi undoshlardir, demak, ulardagi fizik-akustik va artikulyatsion belgilari bir-



biriga juda yaqin, shuning uchun *arqon* va *arkon* leksemalri talaffuzida bir-biriga o'xshashlik bor.¹

Ikki leksemani o'zaro *paronim* deyish uchun (yunoncha *para* - yonidagi): 1) yasama leksemalar bo'lishi, 2) ayni bi leksemadan yasalgan bo'lishi, 3) ayni bir turkumga mansub bo'lishi, 4) yasovchi morfemalari ifoda jihatidan o'xshash bo'lishi kerak. Leksik paronimlar ancha sodda talablar asosida ham belgilanadi: tovushlar tizimi faqat bir tovushga ko'ra farqlanib turadigan ikki leksema ham o'zaro paronim deb qaraladi. Shunday talab bilan yondashish yetarli deyilsa, *alpoz-* ("ahvol", "yo'sin") - *alpoz-* (lafz- leksemalarning ko'pligi), *abzal-* (asli *afzor*: "asbob", "egar-jabduq") - *afzal* - ("yaxshi", "ortiq") kabi paronim deyish mumkin. Talaffuzdagi o'xshashlik tufayli bunday leksemalrni ishlatishda ham qiyinchilik, noo'rin ishlatish voqe bo'ladi.²

Kakografiya -so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, kakos- yomon, xunuk, graphos- yozmoq degan ma'noni anglatadi. "Kakografiya" metodi xatoga yo'l qo'yilgan matnni tuzatish orqali ta'lim oluvchilarga imlo qoidalariga rioya qilib yozishga o'rgatadi.

"Kakografiya" metodi interfaol metod hisoblanadi. Dars davomida bu metodni qo'llash orqali o'quvchilardagi mustaqil fikrlash, so'zlarni bir-biri bilan taqqoslash, muammolarning yechimini topishga harakat qilish va ona tilida olgan bilimlari asosida zarur xulosalarni chiqarish kabi qobiliyatlari shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod o'quvchilardagi loqaydlik kabi salbiy xususiyatlarni bartaraf qilib, dars jarayonida faol ishtirok etishga sabab bo'ladi.

Maktab darsliklarida, badiiy adabiyotlarda va so'zlashuv nutqida paronimlar faol qo'llaniladi. Masalan: *afzal-abzal*, *amr-amir*, *azm-azim*, *bob-bop*, *qurt-qurut*, *tub-tup* kabi so'zlar. Dastlab o'quvchilarga bu so'zlarning ma'nosi haqida ma'lumot beriladi. Paronimlar talaffuz qilinganda ko'pincha faqrqini yo'qotadi. O'quvchilarga yuqoridagi so'zlaning farqini toping kabi mashq berishimiz mumkin. Birinchi mashq. Berilgan so'zlarning farqini toping.

Afzal-abzal (f-b), *bob-bop* (b-p), *tub-tup* (b-p), *adib-adip* (b-p), *ariq-oriq*, (a-o). Ikkinchi mashq. Birinchi mashqda berilgan so'zlarning ma'nosini toping.

Afzal-ortiq, eng fazilatli; *abzal-ot-ulovni* aravaga qo'shish uchun zarur bo'ladigan asboblari majmui. *Bob-kitob*, asarning ma'lum tugallikka ega bo'lgan har bir qismi, fasli; *bop-mos*, munosib. *Tub-tag*, ost; *tup-o'simlik* yoki daraxtning har bir donasi. *Adib-yozuvchi*, tarbiyali, ma'rifatli; *adip-to'n*, choponning yoqasidan etagigacha ichki chetiga tutilgan ensiz gazlama. *Ariq*- maxsus suv yo'li; *oriq-ozib ketgan*, ozg'in.

"Kakografiya" metodini sinonimlar mavzusida qo'llash ham yaxshi samara beradi. Sinonimlar o'z o'rnida qo'llanilmasa nutqimiz o'z jozibadorligini yo'qotadi. Sinonimlar o'zbek tilida juda ko'p. Sinonimlarlardan asosan badiiy uslubda qo'llaniladi.

Ideografik semalari teng, bir yoki bir necha jihati o'zaro farqli leksemalar (leksosememalar) leksik sinonimlar (leksosinonimlar) deyiladi (yunoncha *synonimos* — "birgalikda nomlash"). Masalan: *yalqov-*, *dangasa-* leksemalari hozirgi adabiy o'zbek tilida ayni bir ideografik semalar yig'imiga ega, ayni bir leksik ma'noni ("mehnat qilishni yoqtirmaydigan") anglatadi va ayrim belgi-xususiyati bilan farqlanib turadi, shunga ko'ra bu

¹ H. Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent 2005

² Sh. Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" Toshkent "Universitet" 2006



leksemalar o'zaro sinonim deyiladi. Leksosinonimlik kamida ikkita leksema (leksosemema) orasida vujudga keladi.³

Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: yelka, kift, o'miz (birinchi guruh); in, uya, oshyon (ikkinchi guruh); nur, shu la, yog'du, ziyo (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar deb nomlanadi. yuz, bet, aft, bashara, turq (dominanta - yuz); nur, shu'la, yog'du, ziyo (dominanta - nur); yolg'iz, yakka, tanho (dominanta - yolg'iz) kabi. Bulardan yuz (birinchi qatorda), nur (ikkinchi qatorda) va yolg'iz (uchinchi qatorda) betaraf ma'nolidir. Sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no - «ovoz chiqarmay miyig'ida kulish» hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no jilmaymoq leksemasida biroz ijobiy, iljaymoq leksemasida esa biroz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq leksemalarida yana-da ortib boradi. Masalan: Qiz Umidga qarab *jilmaydi*. Mirmuhsin. – Yer yutkurlar, nima qilib *irshayib* turibsizlar, huv, ko'zlaring teshilsin!- dedi xotinlardan biri. M. Osim. Har ikki gapdagi jilmaymoq ham, irshaymoq ham kulish ma'nosini anglatadi, ammo, ulardagi emotsional – ekpressivlik bo'yog'i farq qiladi. Jilmaymoq so'zida ijobiy bo'yoq ifodalangan bo'lsa, irshaymoq so'zida salbiy bo'yoq ifodalangan. G'ulomjon uning *jamolini* ko'rib, surat bo'lib qoldi. M.Ismoiliy. G'ofir tobora avjiga chiqar, boyning haqiqiy *basharasini* ochishda davom etar edi. K. Yashin, Hamza. Bu gaplardagi jamol va bashara so'zi odamning yuzi ma'nosini anglatayotgan bo'lsa ham, ularni bir-birining o'rnida qo'llab bo'lmaydi.⁴

O'zbek tili shevalarga juda boy. Har bir viloyat yoki tumanlarda ham shevalar orasida juda katta tafovutlar bor. Adabiy til me'yorlariga rioya qilinmasa, imloda xatolar soni ortib ketaveradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Kakografiya" metodini amaliyotda qo'llash orqali biz o'quvchilarni imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishga o'rgatamiz, imlo me'yorlarining buzilishini oldini olamiz. Dars davomida kichik yoshdagi o'quvchilar ham o'z mustaqil fikrlarini bildirishni o'rganishi, xulosa chiqarishi va fikrlash qobiliyatining rivojlanishi kabi ijobiy natijalarga erishamiz.

References:

1. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent – 2006
2. H. Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent - 2005
3. B. To'xliyev, Sh. Yusupova, T. Ziyodova, O. Oxunjonova, D. Jumashv. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent – 2012
4. Sh. Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" Toshkent "Universitet" 2006
5. B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent - 2010

³ Sh.Rahmatullayev "Hozirgi adabiy o'zbek tili" Toshkent "Universitet" 2006

⁴ H. Jamolxonov "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent 2005